

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12. Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

KAMALOV UMID ACHILOVICH

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OPTATIV GAPLARNING
FUNKSIONAL-SEMANTIK TURLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology**

Kamalov Umid Achilovich

Rus va o‘zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik turlari.....3

Камалов Умид Ачилович

Функционально-семантические типы оптативных предложений в русском и
узбекском языках.....23

Kamalov Umid Achilovich

Functional-semantic types of optative sentences in Russian and Uzbek
languages.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/.2025.27.12. Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

KAMALOV UMID ACHILOVICH

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OPTATIV GAPLARNING
FUNKSIONAL-SEMANTIK TURLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1226 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tues.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Narmuratov Zayniddin Radjabovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar

Bakirov Poyon Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abduraxmanov Faxriddin Israilovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti huzuridagi beruvchi PhD.03/2025.27.12. Fil.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “19” 08 soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 190111, Termiz shahri, “Yulduz” mahallasi, Ibn Sino ko‘chasi, 38-B uy. Tel.: (998 55) 452-77-77; e-mail: university@tues.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9 -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, “Yulduz” mahallasi, Ibn Sino ko‘chasi, 38-B uy. Tel.: (998 55) 452-77-77; e-mail: university@tues.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “17” 08 (2026-yil “17.08” dagi 9 -raqamli reyestr baxoridagi).



[Handwritten signatures of the scientific council members]

O.P.Uralova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Eshmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.X.Mamataliyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

rtatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda jahon gida qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqotlar, xususan, turli tillarda modallik va ii ifodalovchi vositalarni funksional-semantik hamda pragmatik jihatdan o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Rossiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik hamda sun‘iy intellekt yo‘nalishlarida modallik kategoriyasining lingvistik modellari faol ishlab chiqilmoqda. Optativ gaplar turli tillarda istak, orzu, tilak va xohish kabi subyektiv modal ma‘nolarni ifodalovchi muhim sintaktik birliklardan biridir. Ular tarjimashunoslik, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida optativlik kategoriyasi modallik nazariyasi, funksional grammatika, kognitiv tilshunoslik, pragmal lingvistika hamda korpus tilshunosligi doirasida izchil tadqiq etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari optativlikning funksional-semantik tabiatini, boshqa modal kategoriyalar bilan munosabatini va qiyosiy-tipologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, rus va o‘zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tadqiq etish, ularning ifodalanish vositalarini tizimlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Respublikamizda rus tili millatlararo muloqot tili sifatida ko‘p millatli jamiyatning turli etnik guruhlar vakillari o‘rtasida samarali muloqotni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Uning ahamiyati MDH Davlat rahbarlari Kengashining 2023-yilni “Rus tili millatlararo muloqot tili yili”¹ deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi qarori hamda mamlakatimizda rus tilini o‘qitishga qaratilgan islohotlarda o‘z ifodasini topgan. “Bugun O‘zbekiston – demokratik o‘zgarishlar, ulkan imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakati. Yangi O‘zbekistonni qurish subyektiv istak emas, piar kampaniyasi emas, balki obyektiv zaruratdir...”². Yangi O‘zbekiston sharoitida xalqaro ilmiy-ta‘lim makoniga integratsiyalashuv, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikni rivojlantirish rus va o‘zbek tillarining funksional xususiyatlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan rus va o‘zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tadqiq etish, ularning ifodalanish vositalarini aniqlash va tizimlashtirish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Решение Совета глав государств Содружества Независимых Государств. 18 декабря 2020 года. <https://cis.minsk.by/reestr2/doc/6369#text>.

² Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – 133 b.

to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Masalaning o'rganilganligi darajasi. So'zning "hayotimiz ustidan ulkan kuchga, sehrli kuchga"³ ega bo'lgan tildagi muhim rolini hisobga olgan holda, optativ jumalarni o'rganishga bag'ishlangan, quyidagi chet el olimlarining ko'plab ilmiy asarlarini keltirish mumkin, bular – K.A.Timofeyev, N.I.Sidorova, R.A.Buralova, L.F.Berdnik, O.B.Shestakova, Ye.V.Altabayeva, M.K.Gusarenko, N.A.Zubareva, D.G.Anisimov, N.N.Orlova, A.K.Orozova, M.I.Sherbakova⁴; ozarbayjon tilida N.K.Agazade⁵ tomonidan, ingliz tilida M.A.Voznaya⁶ tomonidan,

³ Бердяев Н.А. Русская идея: Основные проблемы русской мысли XIX века и начала XX. Судьба России. – Москва: Сварог и К., 1997. – С. 410.

⁴ Тимофеев К.А. Об основных типах инфинитивных предложений в современном русском литературном языке // Вопросы синтаксиса современного русского языка. – Москва: Учпедгиз, 1950. – С. 257-301; Сидорова Н.И. Оптативные предложения в современном русском языке // Теоретические аспекты лингвистических исследований. – Ярославль, 1979. – С. 36-41; Буралова Р.А. Оптативные и побудительные высказывания с независимым инфинитивом в современном русском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1986. – 18 с.; Бердник Л.Ф. Предложения со значением желательности // Русская речь, 1988. – № 6. – С. 56-59; Шестакова О.Б. Субъективно-модальное значение "желания" и его актуализация в дискурсе. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1994. – 17 с.; Алтабаева Е.В. Категория оптативности в современном русском языке. Дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 2003. – 485 с.; Гусаренко М.К. Дискурсивные разновидности, перлокутивная прагматика и пропозициональные характеристики речевого акта пожелания в современном русском языке. Дис. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2005. – 196 с.; Зубарева Н.А. Оптативные предложения со значением ограничительности желаемого // Альманах современной науки и образования, 2007. – № 3-2. – С. 83-85; Анисимов Д.Г. Слово чтобы в системе средств категории оптативности. Дис. ... канд. филол. наук. – Мичуринск, 2008. – 142 с.; Орлова Н. Н. Модальное имя с семантикой желательности в системе средств категории оптативности. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Тамбов, 2008. – 24 с.; Орозова А.К. Система средств выражения оптативности в произведениях Л.Н.Толстого // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2010. – № 1 (81). – С. 252-255; Щербакова М.И. Лексико-грамматическая специфика оптативности в современном русском языке. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 2016. – 22 с.

⁵ Агазаде Н.Г. Категория наклонения в современном азербайджанском литературном языке: в плане соотношения с категорией модальности. В 2-х т. Дис. ... докт. филол. наук. – Баку, 1965. – 514 с.

⁶ Возная М.А. Структурно-семантические и коммуникативно-прагматические особенности оптативных предложений в современном английском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Киев, 1991. – 18 с.

boshqird tilida G.G.Ganeyeva⁷, tatar tilida R.R.Salaxov⁸ tomonidan; chog‘ishtirmada: rus va ingliz tillari T.I.Raspopova⁹, rus va bolgar tillari A.Nikolova¹⁰, rus va tojik tillari R.D.Salimov¹¹, rus va xitoy tillari Yao Tsyun¹², rus va qozoq tillari O.A.Inkarbay¹³, rus va o‘zbek tillari U.A.Kamalov¹⁴, o‘zbek va ingliz tillari D.A.Ganiyeva¹⁵ va boshqalar. Ushbu tadqiqot ishida ilk bor rus va o‘zbek tillarida optativ jumlar o‘rganib chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi rus va o‘zbek tillaridagi optativ gaplarning struktur-semantik, funksional-semantik maydonini, funksional-pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Optativlik” terminining tilshunoslik tarixidagi maqomini aniqlash, rus va o‘zbek tilshunosligida kommunikativ maqsadiga ko‘ra qo‘llanadigan “optativ gaplar” terminining o‘zaro munosabatini aniqlash;

chog‘ishtirayotgan tillardagi modal kategoriyalar tizimida “optativ”ning o‘rni va rolini ko‘rib chiqish hamda rus va o‘zbek tillaridagi optativ leksemalarning funksional-semantik maydonini ochib berish;

rus va o‘zbek tillaridagi istak (optativlik) ma’nosini ifodalovchi optativ-istaklarni, maqol va matallarni tahlil qilish hamda tavsiflash;

rus va o‘zbek tillarida optativ ma’nolarni ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida rus va o‘zbek tillarida optativ semantikani ifodalovchi vositalardan iborat bo‘lib, ularga optativ leksik birliklar, turg‘un birikmalar, paremiologik birliklar, optativ-istak konstruksiyalari, shuningdek, optativ ma’noni ifodalovchi sintaktik qurilmalar, jumladan, rus tilidagi “бы” yuklamasi ishtirokidagi gaplar hamda ularning o‘zbek tilidagi funksional-semantik

⁷ Ганеева Г. Г. Желательное наклонение глагола в современном башкирском языке. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2010. – 25 с.

⁸ Салахова Р.Р. Глагол как средство репрезентации оптативности в татарском языке // Научное наследие ВА Богородицкого и современный вектор исследований Казанской лингвистической школы, 2018. – С. 209-212.

⁹ Распопова Т.И. Оптативные предложения: на материале русского и английского языков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1982. – 23 с.

¹⁰ Николова А. Функциональный диапазон предложений со значением желательности в русском языке (на фоне болгарского языка) // Проблемы когнитивного и функционального описания русского и болгарского языков, 2016. – № 10. – С. 109-143.

¹¹ Салимов Р.Д. Структура и семантика односоставных предложений в русском и таджикском языках. Дис. ... докт. фил. наук. – Москва, 2010. – 399 с.

¹² Яо Цзян. Функционально-семантические типы оптативных предложений в русском и китайском языках. Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2020. – 166 с.

¹³ Инкарбай О.А. Прагматические маркеры выражения долженствования в русской и казахской лингвокультурах / Материалы Международной научной конференции. – Минск, 2016. – С. 82-86.

¹⁴ Камалов У.А. Оптативные предложения в русском и узбекском языках // Молодой ученый, 2020. – № 47 (337). – С. 449-452.

¹⁵ Ganiyeva D.A. Syncretism and polyfunctionality of the grammatical category of mood // Current research journal of philological sciences, 2022. – Vol. 3. – № 10. – С. 67-74.

muqobillari olingan.

Tadqiqotning predmetini rus va o'zbek tillarida optativlikni ifodalovchi vositalarning funksional-semantik, strukturaviy hamda pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ularning funksionallashuvi va amalga oshish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mantiqiy qiyoslash metodi; tipologik tadqiqot metodi; rus va o'zbek tillarida optativlikning funksional-semantik maydonlarini qiyosiy o'rganishga asoslangan komponent tahlil metodi; tavsifiy metod; introspektiv metod kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rus va o'zbek tilshunosligida "optativ gap" terminining lingvistik maqomi asoslanib, uning strukturaviy, semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari hamda modallik kategoriyalarining qiyosiy-tipologik tahlili asosida optativlikning funksional-semantik ifodalanish usullari aniqlangan;

rus va o'zbek tillaridagi optativ leksemalarning funksional-semantik maydoni modellashtirilib, optativlik maydonining yadroviy va periferik birliklari aniqlashtirilgan, rus tilida "хотеть", "желать", o'zbek tilida esa "istak", "xohlamoq" leksemalarining yadroviy maqomi asoslangan hamda optativ ma'nolarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari qiyosiy tahlil asosida dalillangan.

rus va o'zbek tillarida maqol va matallarda optativ ma'noning ifodalanish vositalari qiyosiy jihatdan tizimlashtirilib, tilak ma'nosini ifodalovchi gaplarda rus tilidagi "чтоб", "чтобы", "пусть" grammatik vositalari hamda "бы" yuklamasi ishtirokidagi shakllar, o'zbek tilidagi "Ilohim (Iloyo)+sin", "Ilohim (Iloyo)+gin" shakllarining optativ ma'noni ifodalashdagi funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan;

rus va o'zbek yozuvchilarining badiiy asarlari asosida optativ gaplarning leksik, morfologik va sintaktik ifoda vositalari qiyosiy-chog'ishtirma tahlil asosida aniqlanib, optativ leksemalarning 11 ta funksional-semantik turi tizimlashtirilgan hamda optativ ma'noni ifodalovchi grammatik vositalar sifatida rus tilidagi "бы" yuklamasi, o'zbek tilida esa -AY (IN); -Y (IN); -SIN(LAR); -SA; -SAM; -SIN-DA; -DA; GIN; -SA-YU; -SA + EDI; -SA + EKAN; -SA + KERAK; -AR + EDI-KU kabi affiks va konstruksiyalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

rus va o'zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik turlarini qiyosiy tahlil qilish algoritmi ishlab chiqilgan;

optativ ma'noni ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarni aniqlash mezonlari ishlab chiqilib, ulardan qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar hamda filologik tahlil amaliyotida foydalanish samaradorligi asoslangan;

rus va o'zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik turlarini aniqlash hamda ularni leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali tahlil qilish me'zonlari ishlab chiqilib, ulardan lingvistik tahlil va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati kengaytirilgan;

tadqiqot natijalari asosida optativ gaplarning funksional-semantik tavsifiga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularni "Qiyosiy va chog'ishtirma

tilshunoslik” yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlar hamda oliy ta’limning filologiya yo‘nalishlari o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlarining qo‘llanilishi, qiyosiy tipologiya metodlaridan foydalanilishi, tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida chop etilgan ilmiy maqolalar hamda ma’ruzalar tezislari aprobatidan o‘tkazilgani, shuningdek, olingan ilmiy xulosalarning amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, rus va o‘zbek tillaridagi optativ gaplarning funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida tizimlashtirilganligi, ularning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlari aniqlashtirilganligi hamda optativ gaplarning funksional-semantik tasnifi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan “Qiyosiy lingvistika”, “Qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Leksikologiya” fanlari bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mashqlar to‘plamlarini yozish, shuningdek, lingvistik lug‘atlarni tuzishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rus va o‘zbek tillarida optativ gaplarning funksional hamda semantik turlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi tadbir ishlar amalga oshirildi:

rus va o‘zbek tillaridagi optativ leksemalarning funksional-semantik maydoni modellashtirilib, optativlik maydonining yadroviy va periferik birliklari aniqlashtirilgan, rus tilida «хотеть», «желать», o‘zbek tilida esa “istak”, “xohlamoq” leksemalarining yadroviy maqomi asoslangan hamda optativ ma’nolarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari qiyosiy tahlil asosida ilmiy jihatdan dalillashga oid taklif va tavsiyalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” bo‘yicha amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 28-fevraldagi 04/1-522-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy loyiha doirasidagi rus va o‘zbek tillarida optativ gaplarning funksional-semantik maydonlari ishlab chiqilgan hamda qiyosiy-chog‘ishtirma usullari bilan optativ gaplarni ifodalashning leksik, morfologik, sintaktik vositalari rus va o‘zbek tillaridagi misollar asosida aniqlashtirilishiga samarali xizmat qilgan;

rus va o‘zbek tilshunosligida “optativ gap” terminining lingvistik maqomi asoslanib, uning strukturaviy, semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari hamda modallik kategoriyalarining qiyosiy-tipologik tahlili asosida optativlikning funksional-semantik ifodalanish usullarini aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” bo‘yicha amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-martdagi 04/1-573-son

ma'lumotnomasi). Natijada, ilk bor rus va o'zbek tilshunosligida "optativ gap" atamasining holati bayon qilinib, optativ ifoda vositalaridan foydalangan holda rus va o'zbek tillarida namoyon bo'ladigan optativ tilaklar, maqol va matallar missollar asosida hamda optativ gaplarni ifodalashning leksik, morfologik, sintaktik vositalari rus va o'zbek yozuvchilarining badiiy asarlari misolida isbotlanib qiyosiy-tipologik affikslar jamalmasi yaratilgan;

rus va o'zbek tillarida maqol va matallarda optativ ma'noning ifodalanish vositalari qiyosiy jihatdan tizimlashtirilib, tilak ma'nosini ifodalovchi gaplarda rus tilidagi "чтоб", "чтобы", "пусть" grammatik vositalari hamda "бы" yuklamasi ishtirokidagi shakllar, o'zbek tilidagi "Ilohim (Iloyo)+sin", "Ilohim (Iloyo)+gin" shakllarining optativ ma'noni ifodalovchi funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma tahlil asosida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalardan "Ta'lim va taraqqiyot", "Jahon adabiyoti" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda (2024-2025 yillar) foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 25-noyabrdagi 05-09-1894-son ma'lumotnomasi). Natijada tayyorlangan materialning ilmiy jihatdan keng ommalashuvi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqotlar ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida aprobatsiyadan o'tkazildi va 5 xalqaro hamda 2 respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Shulardan 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shuningdek, 1 ta maqola va 6 ta tezis ilmiy anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tadqiqoti kirish, uchta bob, yakuni, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalari va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 143 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari (uslublari), tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangilik va tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning **"Tipologiya tarixi va optativ gaplarning paydo bo'lishi masalalari"** deb nomlangan birinchi bobi besh paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda rus va o'zbek tilshunosligida chog'ishtirish tipologiya tarixini o'rganish hamda optativ jumlalarining paydo bo'lishi muammolariga bag'ishlangan.

Birinchi bobning **“Chog‘ishtirish tipologiyani o‘rganish tarixi”** deb nomlangan 1.1-paragrafida chog‘ishtirish tipologiya tarixi va “tipologiya” tushunchasini talqin qilishga asosiy e‘tibor qaratilgan, qardoshlik yoki o‘zaro ta’sir munosabatlari bilan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tillarning farqi va o‘xshashligini o‘rganadigan tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida talqin etiladi. Bob besh qismdan tashkil topgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, qiyosi-tarixiy, areal va tipologik tadqiqotlar qiyoslanayotgan tillarning o‘zaro yaqinlashuvini aniqlashga qaratilgan, shuningdek, birlamchi vositalar bilan tushuntirilgan genetik yozishmalar uchun, ikkilamchi qardoshlik uchun til aloqalari mahsuli sifatida nima asos bo‘lishini o‘rganadi. Chog‘ishtirish tilshunoslikning tadqiqot obyekti tillararo aralashuvlarni aniqlaydigan chog‘ishtirayotgan tillarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib hisoblanadi.

Dissertatsiyada chog‘ishtirish tilshunoslik tilning chog‘ishtirish vaqtining ma’lum bir nuqtasida o‘rnatilgan tizim sifatida tavsiflanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, chog‘ishtirish tilshunoslik tadqiqotlarni diaxroniyada emas, balki sinxron jihatdan olib boradi.

Isbotlanganki, diaxronik uslubi bilan o‘rganilganda tillar oilasining toifalari va tillar o‘rtasidagi qardoshlik darajasi normasining genealogik tasnifi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tomonidan o‘rganilgan.

1.2-paragrafida **“Rus tilida optativ jumlar masalasini ishlab chiqish”** “optativlik” (“оптативность”) termining kelib chiqish tarixi bayon etilgan. Ushbu terminning talqini lingvistik va ensiklopedik lug‘atlarida bir xil keltirilganligi aniqlangan. Tahlil natijasida “optativ” atamasi maqbul kayfiyatga moyilligini asosi ekanligi va modallik toifalari to‘plamini o‘z ichiga olganligi hamda shu bilan “optativ”ni lingvistik kategoriya deb hisoblash mumkinligini aniqlandi. Ushbu nazariyalardagi terminologik farqlarga qaramay, ularning mohiyati bir xildir.

Til darajalarini tillar birligini gruppasi sifatida ushbu talqini, umumlashtirilgan yagona jihatlari yoki hodisa bilan ifodalanadi. A.Altibayevaning “Optativ jumlar istakli jumlar, optativ lug‘at esa tilakli lug‘at”¹⁶ degan fikriga qo‘shilmasdan mumkin emas. Muallif “optativ” atamasini istakli tushunchaning mutlaq sinonimi sifatida ishlatishni taklif qiladi”. Chog‘ishtirish tipologiyada “optativ jumlar” tushunchasi mutlaq sinonim sifatida ishlatilishi mumkin “optativ jumlar” (rus grammatikasida mavjud) – “istak gaplar” (o‘zbek grammatikasida mavjud); “optativ lug‘at” – “Xohish-istak leksikasi” (o‘zbek grammatikasida mavjud emas); tilak mayli (rus grammatikasida ba’zi darsliklarga kiritilgan / kiritilmagan) “Istak mayli” (“buyruq-istak mayli”dan chegaralangan). Ta’kidlanganidek, bu jarayonda istak shunchaki intilish yoki niyat emas, balki modallikning haqiqiy bo‘lmagan tekisligida optativlikning dastlabki ma’nosi bilan rivojlanishdir.

O‘rganish obyekti bo‘lgan optativ gaplar (OG) grammatik jihatidan istakni bildiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Grammatik vositalari birining yordamida amalga

¹⁶ Алтабаева Е.В. Категория оптативности в современном русском языке. Дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 122.

oshiriladi, ushbu holatda OG ning negizi (yadrosi) bo‘lib “**бы**” yuklamasi qo‘llaniladi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotining maqsadi – optativ gaplarning tutgan o‘rnini belgilashdir, chunki ayrim tilshunos olimlar optativ gaplarni shart mayli deb bilishsa, boshqalari esa ularni maxsus alohida modal turdagi gaplar deb biladilar.

XX asr boshlarida olimlarning optativ jummalarni tadqiq qilishga qiziqishi kuchaydi. Optativlikni o‘rganishga oid masalalarini yoritish ilk bor chexoslovak olim tilshunos R.Mrazekning ishlarida o‘z aksini topdi¹⁷. Muallif o‘z maqolasida modal-kommunikativ konstruksiyasiga asoslanib optativ jummalarni tadqiq qilgan. Ushbu bayonot “optativ gaplar” atamasini til kategoriyasi sifatida ishlatishning boshlanishi hisoblanadi.

Slovakiyalik olim Ya.Svetlik optativ jummalarning xususiyatlarini o‘rganib, o‘z gipotezasini ilgari surdi. “Gaplar, – ta’kidlardi tadqiqotchi, – so‘zlovchining, biror narsa sodir bo‘lishi, biron bir hodisa yoki harakat sodir bo‘lishi, ma’ruzachining yoki har qanday shaxsning istalgan holati haqiqatga aylanishi istagini ifodalovchi jummalarni biz optativ gaplar (istak bildiruvchi) deb ataymiz”¹⁸. Shunday qilib, slovakiyalik olim Ya.Svetlik optativ gaplar dialogik vaziyatdan tashqarida ishlatilishini va hissiyotlarni bildiruvchi ranglarni o‘z ichiga olishi mumkinligini ta’kidlardi. Intonatsiya, “**бы**”, “**лишь бы**”, “**если бы**”, “**хоть бы**” yuklamasi bilan birgalikda keladigan infinitiv, yoki fe’llarning istak mayli optativ gaplarning xarakterli xususiyatlari deb hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlil va xulosalar asosida “optativ” terminiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Optativ – rus grammatikasida istak, xohish harakati bo‘lib morfologiyada u istak mayli yordamida beriladi, sintaksisda esa istak gaplari niyat ma’nosida / optativ bo‘lib namoyon etiladi;

Istak – bu falsafa (mantiq) va morfologiyada (modal fe’llar) uchraydigan hodisa bo‘lib, biror narsani amalga oshirish imkoniyati yoki ichki istagini bildiradi;

Optativli – zamonaviy rus tilining optativligi toifasi sifatida jumlalarda, barqaror birikmalarda, shuningdek, tadqiqotning funksional va semantik jihatlarida topilgan optativning ma’nolari. Ifoda vositalari leksikologiya, morfologiya va sintaksisda namoyon bo‘ladi;

Optativlik kategoriyasi – bu istak maylini o‘z ichiga olgan, modallik va optativ-infinitiv gaplarni istak, intilish, tilaklar, niyatlar ma’nolariga **бы** yuklamasi yordamida ishlatiladigan grammatik kategoriyadir;

Optativlik – bu lug‘atda, morfologiya va sintaksisda ishlatiladigan istalgan kayfiyat shakli bilan istak, tilak, intilish shaklida ma’nosini ifodalovchi mustaqil lingvistik kategoriya;

Optativli leksika – optativning turlaridan biri bo‘lib, unda so‘z ma’nosining asosiy qobig‘i istak yoki niyat, leksik ifoda vositalari esa omonimiya hisoblanadi. Masalan: *Я подумала, что это обычные охотники за автографами, – рассказывает Миннелли (RTMK); Мен ularni oddiy dastxat ovchilari deb*

¹⁷ Mrázek R. Syntax pracich vět v rustině // Československá rusistika, 1958. – № 1. – S. 3-18.

¹⁸ Светлик Ян. Синтаксис русского языка в сопоставлении со словацким. – Братислава: Словацкое педагогическое издательство, 1970. – С. 285-286.

o'yladim – deydi Minnelli (RTMK); И всегда находились охотники помочь беззаботной птичке божьей! (RTMK). Va har doim Xudoning beozor qushiga yordam beradigan xohlovchilar bor edi! (RTMK).

1.3-paragrafida **“O‘zbek tilining optativ gaplari kommunikativ aspektda”** o‘zbek tilidagi istakli gaplarini tadqiqot qilinib, hozirgi o‘zbek tilidagi gaplarning kommunikativ turlari masalasi tarixi tahlil qilinadi, qo‘llanma muallifi A.I.Abrajeyevaning rus va o‘zbek tillarining grammatik tuzilishining qiyosiy tahlilida quyidagi ta’rifga e’tibor qaratilgan: “Rus tilidagidek, o‘zbek tilida ham, – deydi u, – jumlar gapning aytilish maqsadi va ifodalanish tabiatiga qarab darak, so‘roq va undov gaplariga bo‘linadi”¹⁹.

Istak gaplar – bular shunday gaplarki istakni, intilishni bildiradilar; ushbu gaplarning kesimi istak mayli bilan keltirilgan bo‘ladi”²⁰. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilining istak mayli bilan ifodalangan istakli shakldagi gaplarni o‘rganish harakatlari hattoki 1960-yilning o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan.

1966-yilda chop etilgan “Zamonaviy o‘zbek adabiy tili” qo‘llanmasida, sodda gaplar mazmuni va urg‘usi bo‘yicha quyidagi to‘rt tipga ajratilgan: 1) darak gaplar; 2) so‘roq gaplar; 3) buyruq; 4) undov gaplar. Har bir gap tipi o‘zining mustaqil mazmuniga ega, boshqa tipdagi gaplardan o‘zining grammatik xususiyatlari va urg‘usi bilan ajralib turadi²¹.

2003-yilda chop etilgan “Zamonaviy o‘zbek adabiy tili” qo‘llanmasida²², sodda gaplar aytilish mazmuni maqsadiga ko‘ra: 1) darak; 2) so‘roq; 3) buyruq gaplarga bo‘lingan.

“O‘zbek tili grammatikasi”da 1976-yilgi tahririda: gaplar aytilish mazmuni maqsadiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi: 1) darak gaplar; 2) so‘roq gaplar; 3) buyruq gaplar; 4) undov gaplar. Har bir jumla turi boshqa jumla turlaridan mazmuni, grammatik xususiyatlari va intonatsiyasi bilan farq qiladi²³.

Mazkur yondashuv doirasida ushbu tadqiqotda o‘zbek tilida taqdim etilgan gaplarning nutqiy maqsadga ko‘ra tavsifi ko‘rib chiqiladi: “Darak gaplar (biror narsa haqida darak (xabar) beruvchi gaplar). So‘roq gap (aniqlashtirish, savol maqsadidagi gaplar). Buyruq gaplar (buyruq, biror narsaga undash maqsadida ishlatiladigan gaplar). **Istak gap** (istak, xohish-istak maqsadli gaplar)”. Ushbu darslikda, shuningdek, nutqimizdagi har qanday gaplar quyidagi maqsadlarni uzatish uchun ishlatiladi deb aytilgan fikr tahlil qilingan: 1) Xabar berish; 2) So‘rash, aniqlash; 3) Buyurish, undash; 4) Istak, xohish bildirish.

1.4-paragrafida **“Rus tilining optativ gaplari kommunikativ aspektda”** muammolardan biri yoritiladi, ushbu muammoli masala bilan tadqiqotchigrammatistlar to‘qnash keladilar bu – kommunikativlikni grammatikada noto‘g‘ri ko‘rib chiqilishi.

Optativ gaplarni ta’riflanishi ilk bor E.A.Aliyevaning O‘zbekiston

¹⁹ Абражеев А.И. Сравнительный анализ грамматического строя русского и узбекского языков (фонетика, морфология и синтаксис). Учебное пособие. – Самарканд: Издательство СамГУ, 1962. – С. 108.

²⁰ Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – С. 347.

²¹ Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2. Синтаксис / [Абдурахмоновнинг Ғ.А. умумий таҳрири остида; Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, А.С.Пушкин номидаги тил ва адабиёт Институтини. – Тошкент: Фан, 1966. – 38 б.

²² Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 158 b.

²³ Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 99 б.

Respublikasida “Zamonaviy rus tili. Soʻz birikmalari va sodda gaplar sintaksisi” oʻquv qoʻllanmasida kuzatiladi. “Kommunikativ gapning nutq maqsadlari boʻyicha – deb belgilab beradi E.A.Aliyeva, – darak gaplar, soʻroq gaplar, buyruq gaplar va **optativ (istak) gaplarga** boʻlinadi”²⁴. Darslik muallifi gapning kommunikativ maqsadi boʻyicha optativ gaplarning namoyon boʻlish oʻrni va rolini belgilaydi, ammo muallif optativ gaplarning qisqacha tavsifini beradi. Optativ gaplar maʼlum bir oʻziga xos modal maʼnoni – istak, niyat maʼnosini ifodalaydi. Biroq “optativ gaplar” atamasining joriy etilishining boshlanishi Oʻzbekiston Respublikasining zamonaviy rus tili tarixi bilan asos solingan deb hisoblash mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, kommunikativ jihatdan optativ gaplar zamonaviy rus tilida, ham Rossiyaning, ham mamlakatimiz oʻquv nashrlarida namoyon boʻlgan.

1.5-paragrafida “**Rus va oʻzbek tillarida modallik kategoriyasining nazariy tavsiflari**” modallik kategoriyasini oʻrganish masalalarini, nafaqat zamonaviy rus tilida, balki oʻzbek tilshunosligining mamlakatimiz tilshunos olimlarini va umuman olganda butun dunyo olimlarining ham koʻproq eʼtiborini jalb etmoqda. Modallik kategoriyasi sohasidagi koʻpgina tadqiqotlar ushbu terminologiyani aniq tavsifini berishga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Baʼzi olimlar “modallik kategoriyasi masalasi tilshunoslikdagi eng munozarali masalalardan biridir”²⁵, – deb hisoblaydilar, ammo modal soʻzlar rus va oʻzbek tillari grammatikasi nuqtayi nazaridan toʻliq oʻrganilgan deb inkor etib boʻlmaydi.

Oʻzbek va rus tillarida modallikni ifodalash vositasi sifatida maxsus modal feʼllar ishlatiladi. Modal feʼllarning asosiy koʻrsatkichlarini quyidagicha guruhlash mumkin: 1) imkoniyatlar 2) ehtiyojlar, 3) istaklar.

1. Imkoniyatlarni bildiruvchi modal feʼllar oʻz ichiga quyidagi modal soʻzlarni oladi: *qila (bajara, amalga oshira) olmoq, uddalamoq, uddasidan chiqmoq, eplamoq (мочь), bilmoq, qila bilmoq, qoʻlidan kelmoq (уметь), mumkin, kerak, lozim, darkor, zarur, imkon, ehtimol (можно, нужно, должен, дозволено, возможно), balki, ehtimol (может быть).*

2. Ehtiyojlarni bildiruvchi modal feʼllar oʻz ichiga quyidagi feʼllarni oladi: *darkor, boyad(qi)* (koʻhna kitobiy), *lozim, shart, zarur (нужно, следует, необходимо, должен, надо).*

3. Chogʻishtirilgan tillarda istak maʼnosiga ega modal feʼllarga quyidagi modal soʻzlarni oʻz ichiga oladi: *istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, umid qilmoq, umidvor boʻlmoq, ilinjida yurmoq, intizor boʻlmoq (желать, хотеть, чаять), niyat qilmoq, qasd qilmoq, ...moqchi boʻlmoq, muddao, maqsad (намереваться, хотеть), hozir boʻlmoq (быть готовым), botinmoq, jurʼat qilmoq, betlamoq, hal qilmoq (сметь, решаться).*

Modallik barcha tillarda mavjud boʻlib, ular soʻz, soʻz birikmasi yoki gaplarda uchraydi, sintaktik, morfologik va leksik jihatdan ifodalanadi. Grammatikada koʻproq morfologik ifoda vositalarini, keyin sintaktik ifoda vositalarini kuzatish mumkin.

²⁴ Алиева Э.А. Современный русский язык. Синтаксис словосочетания и простого предложения. Учеб. пособ. – Ташкент: Tafakkur-boʻstoni, 2018. – С. 91.

²⁵ Распопова Т.И. Оптативные предложения: на материале русского и английского языков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1982. – С. 6.

Rus va o'zbek tillarining optativ FSMsining markaziy doirasiga quyidagi so'z turkumlari kiritildi:

1) **1. Fe'l:** *желать* / *istamoq, tilamoq, xohlamoq, xohish, tusamoq; хотеть* / *istamoq; жаждать* / *chanqamoq, istamoq; мечтать* / *orzu qilmoq, orzulamoq; стремиться* / *intilmoq, intilish, tirishmoq; намереваться* / *niyat qilmoq; надеяться* / *umid qilmoq, umidlanmoq, umidvor bo'lmoq.*

2. **Sifatdosh:** *желающий* / *istagan, kutilgan, xohlagan; желаемый; желанный* / *tilangan, istalagan, orzu qilingan; жаждущий* / *qattiq istagan; istalagan, orzu etilgan.*

3. **Ravishdosh:** *желаю* / *istab, xohlab; жажду* / *istab; мечтаю* / *orzu qilib.*

4. **Ot:** *желание, хотение* / *istak, tilak, xohlovchi, istovchi, orzu, ra'y, mayl; жажда* / *ishtiyoq, chanqoq, zo'r istak, orzu, havas, orzumandlik; мечта* / *orzu-niyat, orzu, umid; мечтание* / *orzu, orzu-istak, orzu-xayol, orzu-o'y, orzu-umid; стремление* / *ishtiyoq; охотник* / *xohlovchi, istovchi, talabgor; намерение* / *niyat, maqsad; рвение* / *g'ayrat, ishtiyoq; надежда* / *ilinj, umid, orzu-armon, orzu-havas.*

5. **Sifat:** *желанный* / *matlub, armonli, ishtiyoqmand; желательный* / *maqbul, tashna; мечтательный* / *orzumand, orzu-havasli, umidli, umidbaxsh, umidvor.*

6. **Ravish:** *охотно* / *jon deb, bajonidil; неохотно* / *istar-istamas, uncha xohlamasdan, xohlamay; угодно* / *kerak (modal), lozim (modal), istalgancha (ravishdosh), xohlagancha (ravishdosh); жадно* / *zo'r ishtiyoq bilan; страстно* / *zavq bilan, astoydil (juda-juda).*

Rus rus va o'zbek tillarida FSMning tevarak atrof-doirasida rus tilidagi eskirgan so'zlar, shuningdek **“бы”** yuklamasi va zaif ifodalangan optativ so'zlar bilan birikmalar kuzatiladi:

1. **“бы” yuklamasi bilan:** *желал бы* / *istar edim, tilar edim; хотел бы* / *istay, xohlar edim; мечтал бы* / *orzu qilay; жаждал бы* / *istay; если бы* / *-sa edi, koshki, bordi-yu, zora; хоть бы* / *koshki, -sa ham, -sa edi; хотя бы* / *koshki; лишь бы* / *...gina, xolos faqat; только бы* / *koshki, qani endi; вот бы* / *qani endi; мне бы* / *istayman; будь бы* / *-sa, bo'lsa-yo; хорошо бы* / *yaxshi bo'lardi; лучшие бы* / *yaxshisi, ta'quli shuki; чтоб, чтобы, пусть* / *iloyo...-sin; -sin.*

2. **Birikmalar bilan:** *так хотелось* / *shunaqa istar edim, xohlar edim.*

3. **Rus tilidagi eskirgan (qadimiy) optativ so'zlar:** *алкать*²⁷, *бажать*²⁸, *волити*²⁹, *вождемети*³⁰ / *tilakdosh, juda ham xohlamoq, qattiq istamoq, orzumand bo'lmoq; оход*³¹ / *xohish, istamoq; похоть*³² / *shahvat, shahvoniy nafs; любоначалие*³³ / *amalparast.*

4. **Sust ifodalangan optativ so'zlar:** *желание* / *muddao; пытаться* / *urinmoq, harakat qilmoq; собираться* / *istamoq, xohlamoq, qilmoqchi (bajarmoq niyatida); страсть* / *shavq, shavq-zavq; страстный* / *jo'shqin; желательно* /

²⁷ “Алкать” yoki “Алкати” – och qolmoq; yeyishni xohlaydi, juda istamoq. “Алкота” – ochlik. “Алчешь”, “алкать” so'zidan olinib juda och, ochko'zlik bilan xohlaydi.

²⁸ “Бажаний” – sevimli, “бажать” so'zidan olingan (sevmok, istamoq).

²⁹ “Волити” – xohlamoq; tilamoq; talab qilmoq.

³⁰ “Вожделети” – kuchli istak bor, juda istamoq.

³¹ “Оход” – tilak, hafsala.

³² “Похоть” – porok istak, yomon istak, shahvat. “Похотствовать” – shahvat, nojo'ya, yomon niyat va istak.

³³ “Любоначалие” – amalparast, rahbarlikka ishtiyoq, boshliq bo'lish istagi.

matlub, ma'qul, maqbul; жадно / zo'r ishtiyoq bilan, qizg'anib; пожелание / tilak, istak, xohish, orzu, istash, tilash, требование / taqozo, talab; увлечение / zavq-shavq, zavqbash.

2.2-paragrafida **“Rus va o'zbek tillarida optativ-tilaklar”** “istak”, “xohish” atamasini tavsifi berilgan. M.A.Voznaya ta'kidlab o'tganidek, “Optativ gaplardagi istaklar aloqa jarayonida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etmayotgan har qanday shaxsga yoki shaxslarga, shuningdek, jonsiz narsalarga yo'naltirilishi mumkin”³⁴. Xohishdan farqli o'laroq, istak-bu kimgadir biror narsa tilash niyati, xohish esa siz xohlagan yoki xohlayotgan narsangizni bildirishdir. Istak yaxshi niyatli yoki g'arazli bo'lishi mumkin. Istak tarkibiga sehr va ibodatni kiritishingiz mumkin, chunki ular chaqiruvning variantlari va natijada asosiy komponent fitna deb hisoblanadi³⁵. Tilshunos olim A.V.Korovashkoning “XIX-XX asrlar rus adabiyotida fitna va afsunlash”³⁶ ilmiy tadqiqotida rus folklori sohasida izlanish natijalari, tadqiqotni olib borish uchun tadqiqotchiga anchagina foydali bo'ldi.

O'zbek tilining izohli lug'atida “Tilak” so'zi quyidagicha keltirilgan: 1. Biror – bir istak tilak bilan, jumlada biror narsani tilash, duo fотиha berish bilan. 2. Qandaydir niyatni, istakni amalga oshirish, bu ichki intilish, his etish tuyg'uga erishish; istak, niyat³⁷. M.P.Aripovning asarida turk tilidagi tilaklar, fотиha berish va maqtovlarning leksik hamda semantik xususiyatlarini o'rganishga muvaffaqiyatli urinish bo'lgan³⁸.

Duo – bu yordam yoki tilaklarini ijobat bo'lishlikni tilab murojaati bo'lib, u odam (ibodat qilayotgan) Xudoga yoki uning Azizlariga murojaat qilib istak yordamida o'zining niyatlariga yetishish uchun so'rov bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilida “Duo” ushbu talqinlarga ega va quyidagi variantlar bilan izohlanadi: 1. Ibodat; fотиha berish; afsunlash; 2. Yaxshi niyatlar bildirish³⁹.

Afsunlash, duo qilish – bu buyruqqa chaqiriq, undash, so'rov, iltimos, ogohlantirish, taqiqlash va sehrli ta'sirni imperativ shaklga o'tkazish orqali ma'lum bir natijaga erishish uchun afsunlik tahdid talab qilishga chaqiriq. N.I.Sheglovaning ta'kidlashicha, “duo qilish – kuchli iltimosni bildiradi, bu lekin hech qanday afsunlash nutq akti emas, ushbuda so'z kuchi hayotiy borliqqa ta'sir kuchini o'tkazish, duo qiluvchi esa sabab bo'ladigan harakatni bajarish uchun mo'ljallangan hayotiy borliq va ilohiy kuchlar o'rtasidagi vositachi sifatida ishtirok etadi”⁴⁰.

Rus tili milliy korpusidan olingan salbiy ma'nosidagi misollar, optativ-istak qurilmalari bilan ishlatiladi: **“Чтоб”, “Чтобы”, “Пусть”; / Илоhim (Илоyo)+SIN,**

³⁴ Возная М.А. Структурно-семантические и коммуникативно-прагматические особенности оптативных предложений в современном английском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Киев, 1991. – С. 8.

³⁵ Аржанников М.Ю. Композиционная организация и языковые особенности немецких заговоров XII-XVI веков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2017. – С. 8.

³⁶ Коровашко А.В. Заговоры и заклинания в русской литературе XIX-XX веков: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 56 с.

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси: 5 жилдли / ЎЗР ФА А.Навоий номидаги Тил ва адабиёти ин-ти; Мадвалиев А. таҳрири остида; таҳрир хайъати Бегматов Э. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тўртинчи жилд: Тартибот – Шукр, 2008. – Б. 94.

³⁸ Арипов М.П. Турк тилидаги тилак, олқиш ва дуоларнинг лингвомаданий ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2022. – 56 б.

³⁹ Ўзбекча-русча луғат / Азизов О., Ризаева З. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 59 б.

⁴⁰ Щеглова Н.И. Заклинание как побудительный речевой акт в новозаветных текстах // Индоевропейское языкознание и классическая филология, 2017. – С. 906.

Ilohim (Iloyo)+GIN). Masalan: (**Ilohim**) *Doimo sening boshingga baxtsizliklar yog‘ilaversin!* so‘zma-so‘z: **Чмоб** на твою голову одни несчастья сыпались!; (**Ilohim**) *Sen kasalxonada tiriklayin chirib ketgin!* so‘zma-so‘z: **Чмоб** ты заживо в больнице сгнил!.

E.V.Altabayevaning⁴¹ ilmiy asarlarida chuqur va har tomonlama tahlil mavjud bo‘lib, unda “tilak-la’nat” ning ilmiy asoslanishi berilgan. Istak-la’nat – bu shunday istaklarki, bularda mavhum xarakterli istaklar ekspressivlik, yaqqol ifodalangan emotsionallik, undov intonatsiyasining mavhum tabiatini ifodalovchi jumla va ko‘pgina hollarda so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladi, natijada u optativlik ma’nosini shakllantiradi. Istak-la’nat **“чмоб”** yuklamasi bilan modal xilma-xillikdan biri sifatida ishlatiladi. Agar optativlik FSM nuqtai nazaridan optativ istaklarni ko‘rib chiqsak, unda bu tuzilmalarni atrof-tevarak zonaga kiritish mumkin.

2.3-paragrafida **“Rus va o‘zbek tillaridagi optativ maqol hamda matallar”** tadqiqot manbalari bo‘lib, M.Sodiqovanning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati”dan, M.A.Ribnikovaning “Rus maqollari va matallari”, K.M.Karomatovanning “Proverbs-Maqollar-Пословицы”, L.Mixaylovaning “20 000 rus maqol va matallari”dan olingan 100 dan ko‘proq barqaror (maqol va matallar) xizmat qildi.

Maqol va matallarning optativligini yetkazishning asosiy vositasi sifatida xizmat qildi, jumladan, leksik-optativ birliklarni olamiz: *istak bildirish, istak, xohish, xohlash, niyat, niyat qilmoq, intilish, intilmoq, orzu, orzu qilmoq, tashna bo‘lmoq, tashnalik*. Masalan: maqol: *Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingga umr tila / Чем желать смерти другому, лучше пожелай себе (долгих лет) жизни* (QO‘RMML⁴². – B. 18); matal: *Havas qilgan – yetar, hasad qilgan – yitar / Доброта ведет к счастью, недоброжелательность – к гибели; Добро будешь желать – получишь добро, зло будешь желать – получишь зло* (QO‘RMML. – B. 90); matal: *Ikki orzu bir topilmas / Две мечты (два желания) одновременно не исполнятся (не сбудутся) в одно и то же время* (QO‘RMML, 34 b.); maqol: *Nazring naqd bo‘lsa, muroding hosil bo‘lur / (so‘zma-so‘z: если приношение будет наличным, желание твое исполнится).*

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Rus va o‘zbek tillarida optativ gaplarni leksik, grammatik va sintaktik ifodalanish vositalari”** deb nomlanib, uch paragrafdan iborat.

3.1-paragrafida **“Rus va o‘zbek tillarida optativlikni ifoda etishning leksik vositalari”** nomli “freyma” tushunchasiga matinning barcha vazifalariga mohiyat mazmuni majmui bilan izoh berilgan, optativ birliklarni, istak freymasi yordamida **“чтобы”** bog‘lovchi – yuklamasi ta’riflanishi ko‘rib chiqiladi.

Shunday qilib, tadqiqot jarayonida optativ ma’noning quyidagi o‘n bir turi aniqlanib, tavsiflandi:

1. Istak: **Я хочу, чтобы мы остались все вместе** (RTMK), so‘zma-so‘z: *Men birga qolishimizni istayman.*

⁴¹ Алтабаева Е.В. Категория оптативности в современном русском языке: Дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 2003. – С.289-290.

⁴² Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати (QO‘RMML) // Краткий узбекско-русский словарь пословиц и поговорок. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1993. – 95 б.

2. Orzu-istak: **Вот бы учителя, врачи, библиотекари могли сами решать, какую пенсию им получать!** (RTMK), so‘zma-so‘z: Qaniydi o‘qituvchilar, shifokorlar, kutubxonachilar qanday nafaqa olishlarini o‘zlari hal qilishsa!.

3. Zaruriyat: **Я абсолютно свободна и могу делать, все, что угодно** (RTMK), so‘zma-so‘z: Men butunlay ozodman va xohlagan narsamni qila olaman.

